



## **UZBEKISTAN – TURKSOY: DEVELOPING CULTURAL DIPLOMACY TO PROMOTE THE GREAT HERITAGE OF THE ANCESTORS**

**Shokhrukh Akbarov**

*Advisor to the Minister of Culture  
of the Republic of Uzbekistan on International Affairs  
Tashkent, Uzbekistan*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Uzbekistan, TURKSOY, bardic art, Turkic world, cultural diplomacy, pan-Turkic values, Khiva, cultural integration, identity, folklore.

**Received:** 26.04.25

**Accepted:** 28.04.25

**Published:** 30.04.25

**Abstract:** This article analyzes Uzbekistan's leading role in cultural cooperation among Turkic countries, particularly its dynamic cultural diplomacy within the framework of TURKSOY and the Organization of Turkic States. Using the example of the art of bards, the paper discusses the restoration of pan-Turkic values, their influence on national identity among youth, and their promotion on the international stage. The significance of the II Forum on Turkic World Culture held in Khiva and other national initiatives are examined within the context of Turkic cultural integration.

## **O'ZBEKISTON – TURKSOY: AJDODLAR BUYUK MEROSINI TARG'IB ETISHDA MADANIY DIPLOMATIYANING RIVOJI**

**Shohruh Akbarov**

*O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining  
xalqaro aloqlar bo'yicha maslahatchisi  
Toshkent, O'zbekiston*

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, TURKSOY, baxshichilik san'ati, Turkiy dunyo, madaniy diplomatiya, umumturkiy qadriyatlar, Xiva, madaniy integratsiya, identitet, folklore.

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonning turkiy davlatlar bilan madaniy hamkorlikdagi yetakchi o'rni, ayniqsa TURKSOY va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida olib borayotgan madaniy diplomatiya faoliyati tahlil qilinadi. Baxshichilik san'ati misolda umumturkiy qadriyatlarning tiklanishi, yosh avlod ongida milliy identitetni shakllantirishdagi roli va xalqaro maydondagi ta'siri yoriladi. Xiva shahrida o'tkazilgan II Turkiy dunyo madaniyati forumi va boshqa tashabbuslarning turkiy xalqaro madaniy integratsiyadagi o'rni tahlil etilgan.

## УЗБЕКИСТАН – ТЮРКСОЙ: РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ЦЕЛЯХ ПРОДВИЖЕНИЯ ВЕЛИКОГО НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ

**Шохрух Акбаров**

Советник Министра культуры Республики Узбекистан  
по международным вопросам  
Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Узбекистан, TURKSOY, искусство бахши, тюркский мир, культурная дипломатия, общетюркские ценности, Хива, культурная интеграция, идентичность, фольклор.

**Аннотация:** В статье рассматривается ведущая роль Узбекистана в культурном сотрудничестве между тюркскими народами, особенно в рамках деятельности TURKSOY и Организации тюркских государств. На примере искусства бахши освещаются процессы возрождения общетюркских ценностей, их роль в формировании национальной идентичности у молодежи и влияние на международной арене. Особое внимание уделено значению II Форума культуры тюркского мира в Хиве и другим национальным инициативам в контексте тюркской культурной интеграции.

Xalqaro miqyosda turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy hamkorlik yangi bosqichiga ko‘tarilayotgan hozirgi davrda, O‘zbekiston ushbu jarayonning markaziy ishtirokchisi sifatida ajralib turibdi. Ayniqsa, mamlakatning TURKSOY va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida olib borayotgan faol madaniy siyosatini madaniy diplomatiyaning ta’sirchan namunasi sifatida baholash mumkin. Umumturkiy qadriyatlarni tiklash, ularni zamonaviy tahlil asosida anglash va xalqaro miqyosda targ‘ib etish masalalari kun tartibidan mustahkam o‘rin egallagan.

2024 yil aprel oyida Xiva shahrida tashkil etilgan II Turkiy dunyo madaniyati forumi va “Yangi O‘zbekistonda baxshichilik san’ati: zamonaviy tadqiqotlar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman mazkur yo‘nalishdagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Tadbirlarda to‘qsandan ortiq xalqaro va mahalliy tashkilotlar, shuningdek, 40 dan ortiq mamlakatdan kelgan olimlar, madaniyatshunoslar va ta’lim sohasi mutaxassislari ishtirok etgani, O‘zbekistonning turkiy madaniy integratsiyadagi tashabbuslariga bo‘lgan yuksak qiziqishni ko‘rsatadi.

Anjumanda baxshichilik san’ati umumturkiy ma’naviy merosning ajralmas qismi sifatida tahlil etildi. Uning folkloriga asoslangan tarkibiy xususiyatlari, arxaik obrazlar va janroviy tizimi zamonaviy gumanitar fanlar – lingvistika, etnopsixologiya, semiotika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashuv asosida muhokama qilindi. TURKSOY ko‘magida tashkil etilgan “Turkiy baxshilar kechasi” tadbiri esa turkiy xalqlar madaniy yaqinligining amaldagi ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi.

Forum doirasida baxshichilikni ta’limga integratsiya qilish, uni raqamli platforma va ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib etish, shuningdek, yosh avlod ongida milliy identifikatsiyani shakllantirish vositasi sifatida baholash borasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga,

baxshichilikni xalqaro miqyosda brending vositasi sifatida rivojlantirish, turizm va madaniy almashinuv dasturlariga integratsiya qilish g‘oyalari ilgari surildi.

Turkiy dunyoda baxshichilikni tiklash va uni yangi zamonaviy kontekstda ilmiy, ma’naviy va strategik tahlil qilish, nafaqat ma’naviy merosni asrash, balki turkiy xalqlar o‘rtasida barqaror madaniy hamjihatlikni ta’minalashga xizmat qiladi. O‘zbekistonning ushbu jarayondagi yetakchi ishtiroki uni turkiy dunyodagi ma’naviy markazlardan biri sifatida mustahkamlab bormoqda .

Xiva shahrida II Turkiy dunyo madaniyati forumi va “Yangi O‘zbekistonda baxshichilik san’ati: zamonaviy tadqiqotlar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning tashkil etilishi tasodif emas. Bu shahar asrlar davomida Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari tutashgan, ilm-fan va madaniyat taraqqiy etgan maskanlardan biri bo‘lib kelgan. Xiva nafaqat betakror me’moriy yodgorliklari, balki turkiy xalqlar ma’naviy hayotida tutgan o‘ziga xos o‘rni bilan ham ajralib turadi. 2020 yilda “Turkiy dunyo madaniy poytaxti” va 2024 yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti” sifatida e’tirof etilgani shaharning madaniy va geomadaniy ahamiyatini yanada mustahkamladi.

Forum doirasidagi eng muhim masalalardan biri — xalq og‘zaki ijodiyotining yuksak namunalaridan sanalgan baxshichilik san’atiga bag‘ishlandi. Baxshichilik nafaqat badiiy ijod, balki tarixiy xotira, milliy tafakkur, ijtimoiy hotinlik va ma’naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan murakkab madaniy fenomen hisoblanadi. Asrlar davomida baxshilar xalqning og‘zaki tarixini, orzu-umidlarini, axloqiy va estetik g‘oyalarini terma va dostonlar orqali avloddan avlodga yetkazib kelgan. Ular ijtimoiy xotirani saqlashda va milliy o‘zlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Bugungi globallashuv sharoitida baxshichilik kabi noyob an’anaviy san’at turlarini saqlab qolish, uni yangi avlod ongida qayta jonlantirish nafaqat madaniy, balki ma’naviy burch ham hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekistonda tizimli amaliy chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Termiz shahridagi Respublika baxshichilik san’ati maktab-internati va Nukusdagi opera va baxshichilik maktabida iqtidorli yoshlar baxshilik an’analarini o‘rganmoqda. Shu bilan birga, Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa institutida sohaning ilmiy va ijodiy mutaxassislari tayyorlanmoqda. Xalq og‘zaki ijodiga oid 10 ta asosiy doston va termalar asosida maxsus “Oltin fond” shakllantirildi. Bu fond baxshichilikni kelgusi tahlillar, o‘quv-tarbiyaviy dasturlar va madaniy media loyihalarda keng qo‘llash uchun manba vazifasini bajarmoqda.

Baxshichilik san’ati nafaqat madaniy meros, balki millatning ma’naviy immuniteti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xiva shahrida tashkil etilgan mazkur xalqaro tadbirlar esa baxshichilikni nafaqat milliy doirada, balki xalqaro miqyosda ham rivojlantirish, uni turkiy dunyo o‘rtasidagi ma’naviy muloqot vositasi sifatida qayta baholashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda har ikki yilda an’anaviy tarzda tashkil etilayotgan Xalqaro baxshichilik san’ati festivali bugungi kunda nafaqat mahalliy, balki xalqaro madaniy sahnadagi e’tirof etilgan muhim voqeliklardan biriga aylandi. Ushbu festivallar turkiy xalqlar o‘rtasidagi do’stona aloqalarni

mustahkamlash, umumiy madaniy merosni asrab-avaylash va yosh avlod ongida milliy faxr, tarixiy xotira hamda identifikasiya tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilmoqda .

O‘zbekiston bu jarayonda faqat baxshilik an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish bilan cheklanib qolmayapti. Mamlakat butun Turkiy dunyoda ma’naviy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan qator amaliy tashabbuslar orqali faol ishtirokchidan yetakchi mavqega ko‘tarilmoqda.

Shu yuzasidan amalga oshirilgan loyihalardan biri sifatida “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik nashr turkumini ko‘rsatish mumkin. Ushbu nashr o‘zbek tilida chop etilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya kabi mamlakatlardan 450 dan ortiq klassik va zamonaviy adib hamda mutafakkirlarning asarlari jamlangan. Bu loyiha turkiy xalqlarning adabiy-madaniy merosini keng ommaga, ayniqsa yosh avlodga yetkazishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tomonidan ko‘rilayotgan yana bir muhim tashabbus – Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ta’sis etilishidir. Mazkur mukofot Turkiy dunyoda ilm-fan, adabiyot va san’at sohalarida muhim yutuqlarga erishgan shaxslarni taqdirlash hamda ma’naviy yetuklikni rag‘batlantirish maqsadini ko‘zda tutadi .

Prezident tashabbusi bilan turkiy xalqlar folklorining ko‘p jildli antologiyasini yaratish, turkiy tillardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimalarni qo‘llab-quvvatlash, maktab o‘quv dasturlariga turkiy xalqlar tarixi va madaniyatiga bag‘ishlangan fakultativ kurslarni joriy etish kabi g‘oyalarning kuchayib borayotgan sharoitida, O‘zbekiston tomonidan baxshichilik kabi xalq ruhi va ma’naviy o‘zagini ifoda etuvchi san’at turlariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu esa xalqning ma’naviy salohiyatini saqlash, milliy qadriyatlar asosida yosh avlod tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda qat’iy va strategik yondashuv namunasidandir .

O‘zbekiston — Turkiy dunyo qalbida ma’naviyat shamchirog‘ini baland tutgan davlat sifatida o‘z salohiyatini nafaqat milliy darajada, balki umumturkiy madaniy maydonda ham baham ko‘rmoqda. Xivadagi forum esa ilm-fan, adabiyot va san’at sohalaridagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, shu bilan birga turkiy xalqlar o‘rtasida ma’naviy birlik sari tashlangan yana bir muhim qadam bo‘ldi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sayfullayev D. Uzbekistan's diplomacy in the modern international relations system //Journal of Public Affairs. – 2016. – T. 16. – №. 4. – C. 415-422.
2. Sayfullaev D. B. Conceptual Basis of the Modern West and East Diplomacy Study //J. Legal Ethical & Regul. Isses. – 2020. – T. 23. – C. 1.
3. Sayfullaev D. Parliamentary diplomacy in making of foreign policy //The Advance Science Journal of International Relations. – 2016. – T. 1. – №. 1. – C. 52-54.
4. Sayfullaev D., Karimov N. UZBEKISTAN’S RICH ARCHITECTURAL HERITAGE: A STUDY OF ISLAMIC AND CENTRAL ASIAN INFLUENCES //SG

5. Akıllı E. Turksoy, Turkic Council and Cultural Diplomacy: Transactionalism Revisited // Bilig. – 2019. – №91. – S. 1–25. – DOI: 10.12995/bilig.9101.
6. Mukhamedzhanova S., Shahin I., Sharip A. TURKSOY and its role in the cultural integration of the Turkic countries // Turkic Studies Journal. – 2023. – T. 5, №1. – S. 98–118. – DOI: 10.32523/2664-5157-2023-1-98-118.
7. Nadzhimov F. Cultural and public diplomacy in the foreign policy of the Republic of Uzbekistan // International Journal of History and Political Sciences. – 2025. – T. 5, №2. – S. 22–27. – DOI: 10.37547/ijhps/Volume05Issue02-05.
8. Argali M. Cultural Diplomacy: Fraternal Ties Between Uzbekistan and Azerbaijan // Oriental Studies. – 2024. – T. 3, №3. – S. 123–130. – DOI: 10.37547/os/vol-03-03-18.
9. Sobirov J. The Importance of the Turkish Council as a Sustainable Direction of National Interests of Uzbekistan // Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry. – 2021. – T. 6. – S. 6790–6793.